

1-nazorat ishi

Ko'l uzra quyosh chiqishi




Ko'l uzra quyosh chiqishi manzarasini chizing. Bu atrof-muhit uyg'onayotgan lahza: osmon nozik t uslarga bo'yaladi, daraxtlar suvda aks etadi, qushlar esa yangi kunni qarshilashga oshiqadi. Ranglar, shakllar va akslar yordamida ushbu kayfiyatni tomoshabinga yetkazib berishga harakat qiling.



Rasm chizish bosqichlari:

1. Qalam bilan **ufq chizig'ini** va quyoshning joylashishini belgilab oling.
2. **Osmonni bo'yang**. Bunda moviy, pushti va binafsharanglarning biridan biriga silliq o'tishiga alohida e'tibor bering.
3. **Sariq rangli quyoshni** qo'shing. U dumaloq va yorqin bo'lsin, biroq juda katta bo'lmasin.
4. **Yashil, sariq va olovrang** bo'yoq bilan **bir qator daraxtlarni** chizing, bunda **barglarning izidan** foydalanish mumkin.
5. Suvdagi aksni chizing.
6. **Suv effektini** yaratish uchun yengil yotiq surtma-chiziqlar tortish mumkin.
7. **Kichik detallar** qo'shing. Masalan, osmonda qushlar, o'tlar, gullar yoki toshchalar. Bu kompozitsiyaga chuqurlik va tugallik baxsh etadi.

1



2



3



4

